

## DAVLAT XARIDLARI SOHASIDAGI KORRUPSION JINOYATLARNI OLDINI OLIH CHORALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11474984>

**Mirzayev Fayzulla Ibodullaevich**

*Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi  
Iqtisodiy jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni  
legallashtirishga qarshi kurash kafedrasida  
dosenti*

**Abdunabiyev Muhridin Asadulla o'g'li**

*Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi magistranti*

### **Annotatsiya:**

Mazkur tadqiqot ishida davlat xaridlari sohasidagi korrupsiya jinoyatlarni oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar, O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari sohasidagi javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalariga takliflar hamda o'rganilayotgan muammoga doir ilmiy ishlar va olimlar qarashlari o'zaro tahlil qilinadi. Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik, xorijiy davlatlar tajribasida davlat xaridlari sohasidagi korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olish bo'yicha islohotlari tahlil etiladi. Bundan tashqari, mazkur soha bo'yicha olimlarning nazariy qarashlari va amaliyotdagi mavjud muammolar va ularga yechimlar taklif qilingan. Davlat xaridlari sohasidagi huquqbuzarliklarning belgilari ta'riflanib, shu sohada korrupsiyaviy jinoyatlardan o'zaro farqli jihati bayon qilingan.

### **Kalit so'zlar**

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, korrupsiyaviy omil, huquqbuzarliklar profilaktikasi, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi "Ochiq byudjet" portali "jamoatchilik inspeksiyasi", "jamoatchilik nazoratchilari".

## МЕРЫ ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ КОРРУПЦИОННЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В СФЕРЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК

### **Аннотация:**

В данной исследовательской работе рассмотрены меры по предупреждению коррупционных преступлений в сфере государственных закупок, предложения по нормам уголовного законодательства Республики Узбекистан об ответственности в сфере государственных закупок, а также научные труды и взгляды ученых на

проблемы взаимно анализируются. Анализируются законодательство о государственных закупках, реформы по предотвращению коррупционных преступлений в сфере государственных закупок на опыте зарубежных стран. Кроме того, предложены теоретические взгляды ученых в этой области и существующие на практике проблемы и пути их решения. Описаны признаки нарушений в сфере государственных закупок, а также описаны их отличия от коррупционных преступлений в этой сфере.

#### **Ключевые слова**

Стратегия развития нового Узбекистана, коррупционный фактор, предупреждение преступности, Конвенция ООН против коррупции Портал «Открытый бюджет», «общественная инспекция», «общественный надзор».

### **TOPIC: MEASURES TO PREVENT CORRUPTION CRIMES IN THE FIELD OF PUBLIC PROCUREMENT**

#### **Annotation**

*This research work examines measures to prevent corruption crimes in the field of public procurement, proposals for the norms of the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan on liability in the field of public procurement, as well as scientific works and views of scientists on the problems are mutually analyzed. The legislation on public procurement, reforms to prevent corruption crimes in the field of public procurement are analyzed based on the experience of foreign countries. In addition, the theoretical views of scientists in this area and the problems existing in practice and ways to solve them are proposed. The signs of violations in the field of public procurement are described, and their differences from corruption crimes in this area are also described.*

#### **Key words**

*Development strategy of the new Uzbekistan, corruption factor, crime prevention, UN Convention against Corruption "Open Budget" portal, "public inspection", "public supervision".*

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining 2.4.-bandi jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirishga qaratilgan<sup>133</sup>. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi<sup>134</sup>

<sup>133</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.

<sup>134</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son

ham fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatiga jalb qilishning g'oyaviy asoslari belgilangan. Strategiyaning 1, 11, 12, 20, 83, 84-maqсадlari bevosita mazkur mavzuga bag'ishlangan. Tegishli maqsadlar mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish, korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish masalalarini qamrab olgan. Bu, albatta, jamoat nazorati asosida davlat xaridlari sohasida jarayonlarni shaffof kechishi uchun yaratilgan chora-tadbir zaruratidir. Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat xaridlarida korrupsiyaga oid jinoyatlarni oldini olishda ahamiyati yuqori sanaladi. Bu borada bir qator ishlar amalga oshirish mumkin.

Adliya vazirligi tomonidan sog'liqni saqlash, oliy ta'lim, qurilish, va davlat xaridlari sohasidagi qonun hujjatlari ekspertizadan o'tkazilganda, 226 ta qonun hujjatining 65 tasida (29 foizi) 292 ta korrupsiyaviy omillar mavjudligi aniqlangan bo'lsa, davlat xaridlari sohasidagi 16 ta hujjatning 12 tasida 46 ta korrupsiyaviy omil aniqlangan<sup>135</sup>.

M.Usmonaliyev va Y.Karaketovlar, jinoyatchilikning oldini olish deganda, jinoyatlarni aniqlash, ularni kamaytirish, sharoit va sabablarni bartaraf qilishga qaratilgan hamda shaxslarning atrofidagi ijtimoiy va iqtisodiy tomonlar sabab jinoyat yo'liga o'tib qolishi yoki jinoiy faoliyatga qaytarishiga olib keluvchi sharoitlarni bartaraf qilishga qaratilgan ko'p bosqichli davlat va jamoat choralari tizimi tushuniladi<sup>136</sup>.

"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida jinoyatchilikni oldini olish emas, balki huquqbuzarliklar profilaktikasiga "huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-

<sup>135</sup>Korrupsion jinoyatlar asosan kim tomonidan sodir etilishi ma'lum qilindi//  
[URL:https://www.gazeta.uz/uz/2021/03/30/corruption/](https://www.gazeta.uz/uz/2021/03/30/corruption/)

<sup>136</sup> Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: TDYUI, 2001. –B.248.

tadbirlari tizimi", deb bayon etilgan<sup>137</sup>. Davlat xaridlarida korrupsiya darajasini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin bo'lgan asosiy chora-tadbirlar davlat xaridlariga taalluqli munosabatlar sohasiga raqobat mexanizmini<sup>138</sup> va to'liq elektron tizimni tadbir etish, shu bilan birga kriminologik va jinoyat-huquqiy choralar bo'yicha qo'shimcha takomillashtirish ishlarini olib borish muhim sanaladi. Davlat xaridlari sohasidagi korrupsiyaga moyil jinoyatlarning ikki turi: a) mansabdor shaxsning o'z faoliyatida yo'l qo'ygan kamomadini yashirishi yoki foyda olish maqsadida xarid to'g'risidagi hujjatlarni soxtalashtirishi, narxlarni asossiz oshirishi; b) jinoyat subyekti talabgorlarning biridan tanlovda g'olib bo'lishi uchun pora talab qilishi. Shu sababdan, xalqaro ekspertlar ushbu sohada qat'iy ichki moliyaviy nazorat o'rnatilishi orqali korrupsiyani qisqartirishga erishish mumkinligini bildirishadi.

AQSH, RF va Sloveniyada muqaddam "korrupsion jinoyat" sodir etgan yoki katta miqdorda soliq qarzdorligi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar bilan davlat xaridlari bilan bog'liq munosabatlar tuzishga taqiq qo'ygan. Singapurda esa davlat xaridlari sohasidagi korrupsiyaning oldini olish uchun qonunchilikni kuchaytirish, qattiq jazolarni belgilash va maxsus nazorat va taftish organlarini tashkil etish kabi choralar ko'rilgan. Shu chora-tadbirlar natijasida ushbu sohadagi korrupsiya darajasi sezilarli darajada kamaydi va davlat xaridlari jarayonida shaffoflik va halollikni ta'minlandi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarida korrupsion jinoyatlar bilan bog'liq aniq ta'rif ishlab chiqib, javobgarlikning aniq darajasini ishlab chiqish lozim. Bundan tashqari, manfaatlar to'qnashuvi haqida Qonun bo'yicha tartib-qoidalarni buzishning jinoiy javobgarligini belgilash lozim. Davlat buyurtmachilari tomonidan davlat xaridlari haqidagi ma'lumotlar ochiq data bazaga qo'yilishi va ushbu ma'lumotlarning yagona reestrini shakllantirish davlat xaridlarida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlaydi. Bu esa, albatta, davlat xaridlaridagi latent mansabdorlik bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishga oid chora-tadbir bo'lib xizmat qiladi. Zero, qadimgi yunon faylasuflaridan Aflotun (Platon) va Arastu (Aristotel)lardan tortib, o'rta asr mashhur huquqshunosi Monteskye va Ch.Bekkariagacha jazo tayinlashdan ko'ra jinoyatlarni oldini olish choralar ko'rilishi lozimligi haqida fikr bildirishgan. Biroq bu jinoyatni kriminalizatsiya qilish zaruratidan ozod qilmaydi. Ushbu toifa jinoyatlar uchun alohida modda tarkibida sanksiyalar tayinlanishi kerak. Garchi mazkur jinoyat bo'yicha MJtKning 175<sup>8</sup>-moddasida belgilangan bo'lsada, biroq unga jinoiy

<sup>137</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 20-son, 221-modda; 2015-y., 32-son, 425-modda; 2016-y., 52-son, 597-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda.

<sup>138</sup> Ю.В. Скосырская Причины коррупционных преступлений в сфере государственных закупок / Ю.В. Скосырская // Вестник МосУ МВД России. — 2011. — № 2. С.90-91.

javobgarlik belgilash qilmish qaratilgan obyekt va obyektiv tomon belgilarini hisobga olishni taqozo etadi. Bundan tashqari, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Rossiya, Qozog‘iston davlatlari jinoyat qonunchiligida mazkur qilmish uchun jinoiy javobgarlik alohida modda bilan belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga davlat xaridlari sohasida mansabdorlik bilan bog‘liq korrupsion jinoyatlar uchun alohida-alohida moddalar kiritish va jinoyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va kriminogen tabiatidan kelib chiqib javobgarlik belgilanishi kerak.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muqaddima, 8 ta bob va 71 ta moddadan iborat bo‘lib, uning 2-bobi (5-14): korrupsiyaning oldini olish choralari bag‘ishlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-sonli Farmoni asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2022-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi tasdiqlanib, uning 2-bobida ushbu sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha vazifalar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni 4-bobi, 19-moddasida davlat boshqaruvida korrupsiyani oldini olishga oid chora-tadbirlar belgilangan<sup>139</sup>. Ularning ichida davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini o‘rnatish va davlat xodimlari manfaatlar to‘qnashuvining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish choralari e‘tiborga loyiq. Jumladan, davlat xaridlari sohasida jamoatchilik nazoratining yaqqol misoli sifatida “Openbudget” – “Ochiq byudjet” portali ishga tushirilishida fuqarolarning faolligi, har bir ishlarni qonun talablariga muvofiq ravishda tekshirib olishlari sohada korrupsion jinoyatlarning sodir etilishini oldini oladi<sup>140</sup>. Bunda OAV axborot tarmoqlarini ishtiroki ham jamoatchilik nazoratini o‘rnatishda muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, davlat xaridlari sohasida jamoatchilik nazorati manfaat to‘qnashuvini ham oldini olishga imkon beradi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat fondlarning audidlari, iqtisodiy ekspertlardan tashkil topgan “jamoatchilik inspeksiyasi”, “jamoatchilik nazoratchilari”ni qonun hujjatlarida faoliyatini belgilash va ular yordamida davlat xaridlari sohasida amalga oshirilayotgan xaridlarning iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri sarflanishini nazorat qilish sohada sodir etiladigan korrupsiyaviy jinoyatlarning sezilarli kamaytiradi. Shuningdek, ushbu guruhlar davlat xaridlarini amalga oshirish jaroyonidan tashqaridagi subyektlar sanalganligi uchun, xaridlarni nazorat qilishda manfaat to‘qnashuvini oldini oladi.

<sup>139</sup> <https://lex.uz/docs/3088008>

<sup>140</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2023/04/07/open-budget/>

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida” gi Qonun hali qabul qilinmadi. Ushbu Qonun talablarini buzish davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq mansabdorlikka oid jinoyat uchun JKda alohida javobgarlik belgilanishi lozim. Demak, davlat xaridlari sohasida korrupsiyani oldini olish choralari sifatida:

- davlat xaridlari sohasida inson omilini kamaytirish, xususan, davlat xaridlari ishtirochilarining identifikatsion ma‘lumotlarini shifrlash;
- davlat xaridlarini to‘liq elektronlashtirish;
- posttranzaksiya nazoratini o‘tkazish post and ex control xarid o‘tkazilganidan keyingi monitoringni amalga oshirish<sup>141</sup>,
- davlat xaridlari sohasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;
- davlat xaridlari sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish va jinoyatlarni oldini olish uchun javobgarlik belglash kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu bilan birga, “Davlat xaridlari to‘g‘risida” gi Qonunning 13-moddasi davlat xaridlarida korrupsiyaga yo‘l qo‘yilmaslik prinsipi bo‘lib, bu bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan:

insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog‘ida xolisona mezonlardan foydalanilishini;

monitoring va nazorat o‘tkazishning, shu jumladan ichki monitoring va nazorat o‘tkazishning samarali tizimi yaratilishini;

ushbu Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi hollari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar axborotning ochiq manbalarida e‘lon qilib borilishini;

davlat xaridlari tartib-taomillari ushbu Qonunda belgilangan talablarga muvofiq o‘tkazilishini ta‘minlash yo‘li bilan bajariladi<sup>142</sup>.

Davlat xaridlarining har qanday bosqichlarida: davlat xaridlarini rejalashtirish; xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish; shartnomani tuzish va bajarish; davlat xaridlari monitoringida mansabdorlikka oid jinoyatchilik sodir etilishi mumkinligini inobatga olib, ushbu sohada korrupsiya xavfini kamaytirish uchun Yevropa davlatlarining aksariyati davlat xaridlarining elektron protsedurasi amaliyotiga o‘tib bo‘lgan<sup>143</sup>. Davlat xaridlari platformalarining faoliyatini takomillashtirish maqsadida ularning barcha elektron savdo tizimlari (emilliydokon.uzex.uz; eshop.uzex.uz; shop.uzex.uz; exarid.uzex.uz;

<sup>141</sup> Bobojonov.B.P Davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik (jinoiy-huquqiy va kriminologik jihatlar) Falsafa doktori (PhD) ilmiy dar. olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2022.

<sup>142</sup> <https://lex.uz/docs/5382974>

<sup>143</sup> P.O.Восканян. Европейская практика проведения государственных закупок // Вестник Сургутского гос. экономич. ун-та. 2020. №1 (183). С. 42-49.

milliydokon.uzex.uz; dxarid.uzex.uz) faoliyatining to'xtatilishi va 2022-yil 5-yanvardan boshlab yagona elektron tizimi (xarid.uzex.uz) orqali davlat buyurtmachilari (byudjet va korporativ) tomonidan barcha xaridlar amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi. Bu albatta, raqamli iqtisodiyotga qo'yilgan qadamlardan sanaladi. Bu raqamli texnologiyalarni joriy qilish va inson omilini maksimal qisqartirish orqali korrupsiya hamda noqonuniy tovar aylanmasiga barham berish vaqti kelganligini anglatadi. Buning natijasi o'laroq, raqamli iqtisodiyotga o'tish uchun 143 ta davlat xizmati elektron shaklga o'tkazilganligini, 35 ta idorada talab qilinadigan hujjatlar soni hamda xizmat ko'rsatish vaqti ikki hissa qisqarganligini ko'rish mumkin.

Demak, raqamli iqtisodiyot davlat xaridlarida korrupsiyaning oldini olishda ham muhim rol o'ynaydi. Elektron savdo maydonchalari va xaridlarni boshqarish tizimlari kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish xaridlar jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshirishi, shuningdek, korrupsiya jinoyatlari ehtimolini kamaytirishi mumkin. Masalan, Norvegiya davlatida ochiqlik siyosati amalga oshirilgan bo'lib, u davlat xaridlari sohasida korrupsion jinoyatlarni oldini olishda katta islohot bo'lgan. Bundan tashqari, Koreya Respublikaning dasturi mamlakat fuqarolarining masalalari holati haqidagi ma'lumotlarni to'siqlarsiz olish imkonini berib, mansabdor shaxslar bilan shaxsiy aloqalar yoki tezkor qaror qabul qilish uchun ularga pora berish zaruratini yo'q qilgan<sup>144</sup>. Natijada, poytaxtda mansabdor shaxslar korrupsiya jinoyatlari 6 baravarga qisqargan. Singapurda esa GeBIZ elektron savdo maydonchasi yaratilib, davlat tashkilotlariga elektron xaridlarni amalga oshirish va onlayn xarid jarayonini boshqarish imkoni yaratildi. Uning o'ziga xos tomoni undagi barcha jarayonlar hamma uchun ochiq bo'lib, ularni kuzatish va tekshirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, Singapurda xaridlarni boshqarish tizimi (Procurement Management System) yaratilib, u davlat tashkilotlariga ariza topshirishdan tortib to to'lov yetkazib beruvchilargacha bo'lgan barcha xarid jarayonlarini samarali nazorat qilish va monitoring imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunida fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari va mansabdor shaxslarining amalga oshiradigan faoliyat sohaslarini nazorat qilishga oid normalar keltirilgan. Korrupsiyani oldini olish bilan bog'liq yangi Taraqqiyot Strategiyasida nazarda tutilgan maqsadlar hamda ish yuzasidan o'rganilgan xorijiy davlatlar tajribasi yuzasidan Koreya, Niderlandiya va Singapur davlatlarining davlat xaridlari

<sup>144</sup> <https://nic-pnb.ru/articles/zarubezhnyj-opyt-protivodejstviya-korruptcii/>

sohasida korrupsiyani oldini olish bilan bog‘liq chora-tadbirlarini joriy etish maqsadga muvofiq sanaladi. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun 2018-yilda qabul qilingan bo‘lsada mamlakatda jamoatchilik nazorati tizimini to‘laqonli hayotga tatbiq etishda ayrim tizimli muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan, mazkur Qonunda “jamoatchilik nazorati” tushunchasiga ta’rif berilmaganligi natijasida turli yondashuvlar vujudga kelmoqda, jamoatchilik nazorati tadbirlarini o‘tkazishda turli hil to‘siqlar saqlanib qolmoqda, shuningdek, jamoatchilik nazorati subyektlari va davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, “Ijtimoiy sheriklik hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Hukumat qarori (208-son, 22.04.2022-y.)ga asosan tashkil etilgan [e-ngo.uz](http://e-ngo.uz) elektron portalida ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmi mavjud sanaladi. Mazkur platformaning faoliyatini yirik davlat xaridlariga oid ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilish orqali davlat xaridlari sohasida korrupsiyani sezilarli darajada oldini olishga erishish mumkin. Shuningdek, bu bilan “*four eyes*” prinsipining tatbiq etish imkonini beradi.

Shu munosabat ila, raqamli iqtisodiyot sohasida muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-son qarorini va Prezidentning 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son, 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son alohida raqamli jamiyatni qurishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bularning barchasi, hozirgi zamon talablaridan biri raqamli jamiyat va raqamli iqtisodiyot rejimga tayyorlanish lozimligi, davlat sohasida korrupsiyani oldini olishning yagona chorasi inson omilini chetlatish va barcha harakatlar algoritmi ketma-ketlikda qo‘lda boshqaruvsiz amalga oshirilishni ta’minlashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, davlat xaridlari sohasida platformalarni raqamli iqtisodiyot talablariga javob berish uchun shart-sharoitlar yaratish va jarayondan inson omilini maksimal kamaytirish yoki davlat xaridlari sohasida jamoatchilik nazoratini keng jalb etish masalalariga oid aniq mexanizmlarni takomillashtirish kerak. Koreya, Niderlandiya va Singapur davlatlarining davlat xaridlari sohasida korrupsiyani oldini olish bilan bog‘liq chora-tadbirlarini o‘zaro tahlil qilib, mazkur platformaning faoliyatini yirik davlat xaridlariga oid ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilish orqali davlat xaridlari sohasida yirik hajmli xaridlarni fuqarolik



jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratiga tadbqiq etish. Shuningdek, bu bilan "four eyes" prinsipining ishlash imkonini beradi. Bunga "Ijtimoiy sheriklik hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori (208-son, 22.04.2022-y.) [e-ngo.uz](http://e-ngo.uz) elektron portalida ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmini davlat xaridlarining e-xarid.uz sayti bilan o'zaro integratsiya qilish taklif etiladi.

### ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son
3. Korrupsion jinoyatlar asosan kim tomonidan sodir etilishi ma'lum qilindi// URL:<https://www.gazeta.uz/uz/2021/03/30/corruption/>
4. Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: TDYUI, 2001. –B.248.
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 20-son, 221-modda; 2015-y., 32-son, 425-modda; 2016-y., 52-son, 597-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda.
6. Ю.В. Скосырская Причины коррупционных преступлений в сфере государственных закупок / Ю.В. Скосырская // Вестник МосУ МВД России. – 2011. – № 2. С.90-91.
7. <https://lex.uz/docs/3088008>
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/04/07/open-budget/>
9. Bobojonov.B.P Davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik (jinoiy-huquqiy va kriminologik jihatlar) Falsafa doktori (PhD) ilmiy dar. olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2022.
10. <https://lex.uz/docs/5382974>
11. Р.О.Восканян. Европейская практика проведения государственных закупок // Вестник Сургутского гос. экономич. ун-та. 2020. №1 (183). С. 42-49.
12. <https://nic-pnb.ru/articles/zarubezhnyj-opyt-protivodejstviya-korruptcii/>